



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 103,5 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan -33,8 mln. AQSH dollariga yoki 24,6 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **103,5** -24,6 %

(2023- y.: **137,2**)



Saldo

2024- y.: **-17,1** (2023- y.: -17,8)




Eksport

2024- y.: **43,2** -27,7 %

(2023- y.: **59,7**)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **60,3** -22,2 %

(2023- y.: **77,5**)







Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 43,2 mln. AQSH dollariga (27,7 % ga kamaydi) va import hajmi 60,3 mln. AQSH dollariga (22,2 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 17,1 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)









Rossiya TSA – 15,8 Eksport: 9,1 Import: 6,7  15,3 %	XXR TSA – 23,8 Eksport: 7,5 Import: 16,3  23,0 %	Afg‘oniston TSA – 19,0 Eksport: 18,5 Import: 0,5  18,4 %	Qozog‘iston TSA – 25,3 Eksport: 1,6 Import: 23,7  24,4 %	Turkiya TSA – 2,9 Eksport: 0,6 Import: 2,3  2,8 %
Ukraina TSA – 2,1 Eksport: 0,1 Import: 2,0  2,1 %	Pokiston TSA – 2,9 Eksport: 2,5 Import: 0,4  1,0 %	Hindiston TSA – 4,1 Eksport: 0,0 Import: 4,1  3,9 %	Tojikiston TSA – 1,2 Eksport: 1,1 Import: 0,1  1,2 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 0,7 Eksport: 0,3 Import: 0,4  0,7 %











Sirdaryo viloyati jahonning 34 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (15,3 %), XXRda (23,0 %), Afg‘onistonda (18,4 %), Qozog‘istonda (24,4 %), Turkiyada (2,8 %) va Ukraina (2,1 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	13,6	17,9	15,8
 <i>Eksport</i>	7,8	9,3	9,1
<i>Import</i>	5,8	8,6	6,7
XXR	20,2	19,2	23,8
 <i>Eksport</i>	9,1	7,0	7,5
<i>Import</i>	11,1	12,2	16,3
Germaniya	2,6	1,2	0,7
 <i>Eksport</i>	0,0	1,2	0,0
<i>Import</i>	2,6	0,0	0,7
Qozog'iston	37,8	48,6	25,3
 <i>Eksport</i>	1,9	3,8	1,6
<i>Import</i>	35,9	44,8	23,7
Turkiya	7,2	7,3	2,9
 <i>Eksport</i>	4,7	3,7	0,6
<i>Import</i>	2,5	3,6	2,3
Ukraina	0,1	0,1	2,2
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	2,1
Latvia	0,3	0,1	0,2
 <i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,2
<i>Import</i>	0,3	0,0	0,0
Fransiya	0,1	1,0	0,3
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,1	1,0	0,3

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	0,8	1,4	0,7
<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0,3
<i>Import</i>	0,4	1,1	0,4
 Afg'oniston	13,4	31,4	19,0
<i>Eksport</i>	13,4	31,4	18,5
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,5
 Belarus	0,1	0,2	0,2
<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
<i>Import</i>	0,1	0,1	0,2
 Hindiston	0,3	0,1	4,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
<i>Import</i>	0,3	0,0	4,1
 BAA	0,0	0,0	0,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 Tojikiston	11,3	0,7	1,2
<i>Eksport</i>	2,8	0,7	1,1
<i>Import</i>	8,5	0,0	0,1
 Eron	0,9	0,5	1,0
<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,8
<i>Import</i>	0,7	0,5	0,2
 Pokiston	0,9	2,1	2,9
<i>Eksport</i>	0,7	1,7	2,5
<i>Import</i>	0,2	0,4	0,4
 Italiya	3,4	0,9	0,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	3,4	0,9	0,1
 Polsha	0,1	0,5	0,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,5	0,0
<i>Import</i>	0,1	0,0	0,0




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)*



ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 31,5 % ulush bilan 32,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,1 % ulush bilan 0,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 34,1 % ga kamaydi.









Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga kamayib va jami TSA'dagi ulushi 56,0 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 45,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 12,4 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 33,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya</p> <p>TSA – 15,8 Eksport – 9,1 Import – 6,7</p> 	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 25,3 Eksport – 1,6 Import – 23,7</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi</p> <p>TSA – 0,7 Eksport – 0,3 Import – 0,4</p> 	<p>Belarus</p> <p>TSA – 0,2 Eksport – 0,0 Import – 0,2</p> 
<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 1,2 Eksport – 1,1 Import – 0,1</p> 	<p>Ukraina</p> <p>TSA – 2,1 Eksport – 0,1 Import – 2,0</p> 



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (15,3 %), Qozog'iston (24,4 %) hamda Ukraina (2,1 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 43,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 11,1 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 32,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-fevral)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 43,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	59,7	43,2	141,5	72,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36,7	22,2	2,2 m.	60,4	61,5	51,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	1,6	50,9	133,0	2,0	3,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,6	1,1	92,9	68,6	2,7	2,5
Sanoat tovarlari	15,6	12,8	91,1	82,3	26,1	29,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,9	1,1	100,4	119,2	1,5	2,4
Turli xil tayyor buyumlar	3,4	4,0	95,0	116,8	5,7	9,2
Xizmatlar	0,3	0,4	3,1 m.	132,9	0,5	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (29,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (51,3 %) va turli xil tayyor buyumlar (9,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 181,1	54,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	22,1 m.
Sabzavotlar va mevalar	4 980,5	100,1
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	8,3	3,9 m.
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	4,6 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	869,0	2,1 m.
Qog'oz massasi va makulatura	471,2	61,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	267,5	31,1
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	452,2	60,9
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	353,6	0,0

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	9 313,2	74,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	759,2	49,9
Cho'yan va po'lat	0,7	0,2
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2 503,0	2,6 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	2,8	5,2 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	994,3	114,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3 897,6	127,6
Har xil tayyor buyumlar	71,1	51,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	0,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

2024- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga 12,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 28,6 % ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,3 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	9 336,5	9 101,1	119,6	97,4	5	7
Turkiya	3 694,8	619,0	78,6	16,7	8	11
XXR	6 962,4	7 501,6	76,4	107,7	9	6
Qozog'iston	3 810,7	1 588,7	195,9	41,7	4	10
Afg'oniston	31 393,9	18 509,6	2,7 m.	58,9	2	9
Qirg'iz Respublikasi	310,9	299,0	2,3 m.	96,2	3	8
Tojikiston	709,5	1 107,0	9,1	156,0	11	3
BAA	0,1	36,8	0,0	308,9 m.	17	1
Pokiston	1 735,3	2 529,5	2,4 m.	145,8	1	4
Egipt	0,0	323,0	0,0	0,0	16	17
Eron	64,6	746,8	26,3	11,5 m.	10	2
Belarus	121,4	1,0	0,0	0,8	12	14
Polsha	508,0	8,6	0,0	1,7	13	13
Ozərbayjon	94,2	126,2	90,5	134,1	7	5
Turkmaniston	39,6	0,0	0,0	0,0	14	16
Buyuk Britaniya	96,1	0,0	0,0	0,0	15	15
AQSH	28,9	2,2	90,9	7,4	6	12




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-fevral, mln.AQSH doll.)



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri 29,3 % bilan 12,7 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % bilan 0,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-fevral oylarida 19,1 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,3 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (24,8), Pokiston (42,9 %), Qozog'iston (6,2 %), hamda XXR (7,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 4,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>12,6 ming. AQSH dollari</p> <p>18,0 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>138,9 ming. AQSH dollari</p> <p>1211,5 tonna</p> 	<p>Yeryong'oq</p> <p>19,5 ming. AQSH dollari</p> <p>8,7 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>2 228,2 ming. AQSH dollari</p> <p>11 103,6 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>132,3 ming. AQSH dollari</p> <p>116,9 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,6 ming. AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>Bodring</p> <p>2,3 ming. AQSH dollari</p> <p>2,7 tonna</p> 	<p>Limon</p> <p>5,6 ming. AQSH dollari</p> <p>7,0 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	240,0	325,6	6,5
 Pokiston	9 940,6	2 137,1	42,9
 Qozog‘iston	2 201,9	308,3	6,2
 XXR	556,5	380,3	7,6
 Afg‘oniston	4 896,8	1 232,9	24,7
 Latviya	503,9	151,7	3,0
 Tojikiston	136,1	53,6	1,2
 Boshqa davlatlar	571,5	391,0	7,9

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 42,9 %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 60,3 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (40,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,2 % ga kamaydi va 60,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	77,5	60,3	151,6	77,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	43,5	24,3	169,9	55,9	56,2	40,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	0,6	0,8	4,9	117,0	0,8	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	3,4	1,4	147,8	41,2	4,4	2,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,5	0,7	15,0 m.	47,6	2,0	1,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	13,9	7,6	68,8	54,9	17,9	12,6
Sanoat tovarlari	3,0	4,1	93,7	137,9	3,9	6,9
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	9,5	18,9	62,9	198,8	12,3	31,4
Turli xil tayyor buyumlar	1,7	1,8	2,4 m.	101,8	2,3	3,0
Boshqa tovarlar	0,4	0,2	-	35,3	0,2	0,2




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 818,5	43,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1 323,6	41,1 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1239,9	68,0
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 202,2	147,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	64,4	0,0
Probka va yog'och-taxtalar	368,8	91,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,6	32,6
Ko'mir, koks va briketlar	1410,6	41,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	728,1	47,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	23,2	9,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3 790,5	49,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	729,8	36,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2 169,0	81,2


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	498,4	10,9 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	270,8	31,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	490,2	173,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2 759,2	2,1 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	851,3	114,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	7 153,5	122,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8 441,3	8,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	17,8	1,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	616,5	139,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	355,7	82,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	681,7	93,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	86,9	141,6

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 55,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 39,2 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyati 30 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	1 211,7	597,2	47,1	49,2	9	9
Rossiya	8 603,0	6 735,5	148,3	78,3	2	5
XXR	12 280,9	16 332,2	110,9	133,0	5	2
Qozog'iston	44 799,9	23 704,7	124,9	52,9	4	7
Turkiya	3 362,9	2 272,2	134,2	67,6	3	6
Koreya Respublikasi	320,2	119,5	49,4	37,3	10	12
Litva	0,4	0,0	0,1	0,0	19	18
Vengiriya	0,0	263,4	0,0	0,0	14	17
Bolgariya	0,0	309,7	0,0	0,0	13	16
Turkmaniston	0,0	0,0	0,0	0,0	20	20
Belarus	117,1	182,1	99,6	155,5	6	1
Bangladesh	0,0	0,0	80,3	0,0	7	19
Italiya	877,6	78,5	26,3	8,9	11	14
Buyuk Britaniya	7,0	3,6	0,0	51,0	18	8
Eron	466,8	209,4	70,0	44,9	8	10
Polsha	34,3	10,2	32,2	29,7	16	13
AQSH	13,8	12,1	0,0	87,9	15	3
Afg'oniston	0,0	495,9	0,0	0,0	12	15
Azərbayjon	0,0	9,6	0,0	84,0	17	4
Qirg'iz Respublikasi	1087,1	434,9	2,7 m.	40,0	1	11



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 38,0 % bilan 22,9 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,1 % bilan 0,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi 18,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 98,8 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 31,4 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral)




2024- yil yanvar-fevral oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 9,1 mln. AQSH dollari (48,6 %), Ukraina — 2,0 mln. AQSH dollari (10,7 %) va Hindiston – 3,8 mln. AQSH dollari (19,8 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,9 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 6,8 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (2 759,2 ming. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (270,8 ming. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (490,2 ming. AQSH dollari), rangli metal (15,2 ming. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.